

**FARG'ONA VODIYSIDA YER OSTI SUVLARI SATHINING
KO'TARILISHI SABABLI YUZ BERADIGAN EKOLOGIK
MUAMMOLAR**

Rustamova Zilola

Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'o'na vodiysi uning rel'efi, tabiati, tektonik botiqlari tabiat zonasi, haynonot, o'simlik dunyosi haqida

Kalit so'zlar : Farg'ona vodiysi, tektonik, suv ombor Q'rshi cho'li

Kirish

Farg'ona vodiysi "O'rta Osiyoning durdonasi" deb ataladi. Bunday deyilishiga sabab, vodiymizning xushmanzara tabiati, so'lim mineral suvli sihatgohlari qadimdan butun O'zbekiston aholisini o'ziga maftun etgan. Shohimardon, Chortoq, Chimyon, Rapqon sihatgohlari shular jumlasidandir. Farg'ona vodiysi tabiiy jihatdan olganimizda atrofi tog'lar bilan o'ralgan, bodom shaklidagi tektonik botiqdan iborat. Faqatgina g'arbiy tomonida 9 km.li "Xojand darvozasi" ochiq xolos. Maftunkor tabiatidan tashqari vodiymiz O'zbekiston iqtisodiyotini taminlashda ham yetakchilik qiladi. U O'zbekistonning 25% paxtasini, 27% pillasini va turli xil meva va sabzavotlarini etkazib berishda ham oldingi o'rinlarda turadi. Mirishkor dehqonlarimizning tajribalari Mirzacho'l va Qarshi cho'llarini o'zlashtirishda ham qo'l kelgan.

Farg'ona vodiysining relyefi bilan bog'liq holda kelib chiqadigan muammolar:

- yerosti suvlari sathini ko'tarilishi;
- havodagi namlik darajasini ortib borishi;
- yerlarning sho'rlanishi kabi muammolardir.

Bu muammolar bir biriga bog'liq bo'lib, birinchisi ikkinchisini keltirib chiqaradi. Keling, vodiymizning yer osti suvlari satxini ko'tarilishiga to'xtalib o'tsak.

Muammoni kelib chiqish sabablari;

- ko'p suv talab ekinlarni ekilishi;
- noto'g'ri sug'orish;



-suv omborlarining qurilishi;

Vodiy tektonik botiqda bo'lgani uchun yer osti suvlari hech qayoqqa oqib chiqib keta olmaydi, markaziy Farg'ona botig'ida to'planadi. Natijada yer osti suvlari cho'llarda to'planib, asta-sekin ko'tariladi. Aholi o'rtasida esa oyoq og'rig'i kasalligi ko'paymoqda. Ilgari yerlarimiz quruq bo'lgan, bobolarimiz oyoq yalang yurishgan. Ularda oyoq og'rig'i kasalligi deyarli bo'lmagan, chunki quruq tuproqlar oyoqqa tabiiy vanna hisoblangan.

Yer ostiga in qurib yashovchidasht va cho'llarning asosiy hayvonlari kemiruvchilardir. Keyingi 10-15 yil ichida vodiyda yer osti suvlari ko'tarilib, kemiruvchilar inlarini suv bosadi, ular o'z inlarini tark etib, yashash uchun kurash maqsadida yer betiga chiqaboshladi. Kemiruvchlardan kalamushlaryer betidagi namlikka tezda moslashib, tez ko'paydi. Ko'p qavatli uylar, kasalxonalar ostki qismida yashashga moslashib oldi. Endi ular ozuqa izlab yer betiga chiqib, qishloqxo'jaligi ekinlariga zarar keltirdi. Makkajo'xori, kungaboqar, bug'doy, sholi ekinlarini yeb, hosildorlikni pasaytirdi. Bundan tashqari, ular o'zlaridagi turli xil kasalliklarni kushandasi bo'lgan boshqa hayvonlarga yuqtirib, tarqatdi. Jumladan, it va mushuklardagi qutirish kasalligi ko'payib, itlardan odamlarga o'tdi. Aholi o'rtasida qutirish kasalligi ortishiga olib keldi.

Muammoning yechimlari;

Qadimda ota-bobolarimizning tabiiy bilimlari juda yuqori bo'lgan. Ular vodiyning yer osti suvlarini daraxtlar orqali bug'latib, zaxlashuvni oldini olgan vayer osti suvlarini tartibga solish maqsadida zovurlar kovlab ularning qirg'oqlariga tol, terak, jiyda, qayrag'och va tut daraxtlarini qalin qilib ekishgan. O'simliklarning shunday xususiyatlar borki;

-ularning bargi qanchalik yiriklashsa, shuncha suvni ko'p bug'lantiradi.

-o'simliklarga yer osti suviga qanchalik yaqin bo'lsa, suvni shunchalik ko'p bug'latadi.

Demak, mirishkor dehqonlarimiz daraxtlardan tabiiy nasos sifatida foydalanganlar. Ular bu tajribaga uzoq yillik mehnatlari orqali erishganlar. Jumladan, tut exotazorlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Tut exotazorlari:

-birinchidan: shamol kuchini pasaytirib, ekinlarni shamol urishini oldini olgan,

-ikkinchidan: tuproqni unumdor qismini shamol uchirishidan saqlagan;



-uchinchidan: yer osti suvlarini bug'latib turgan;

-to'rtinchidan: ipak qurtiga, va chorva mollariga ozuda bo'lgan;

-beshinchidan: aholiga mahalliy o'tin bo'lgan, ko'mir va gaz tejalgan.

Keyingi paytda tutzorlarni yoppasiga kesilishi, yer osti suvlarining ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Birinchi yechim; tut exotazorlarini qaytadan tiklash muammoning asosiy yechimidir. Zero, tut exotazorlari Respublika pillachiligini asosiy ozuqa bilan taminlaydi, pilla eksporti yanada ortadi.

Keyingi yillar ichida yerlarning zahini qochirish bo'yicha xayrli ishlar amalga oshirildi. Ya'ni vodiya kollektor zovurlarni (Xitoylik mutahasislari yordamida) qaytadan kovlanishi orqali yer osti suvlarining harakatini oz tartibga solinishiga olib keldi. Lekin bu ishlarni o'zi yetarli emas deb o'ylayman.

Natijada: 1. Hosildorlik birmuncha ko'tariladi.

2. Kemiruvchilar o'z inlarini yer ostiga ko'chirdi.

3. Kasalliklar ozaydi.

4. Chivinlar, pashshalar kamayadi.

Ikkinchi yechim; Farg'ona vodiysida suv omborlarni ham yer osti suvlari sathini ko'tarilishiga olib kelmoqda. Vodiyaning yer osti suvlarini yaxshi o'tkazadigan shag'alli jinslardan iborat. U suvni tez o'tkazadi, yer osti suvlari yanada ortadi, havoda namlikni ortishiga olib keladi. Shuning uchun sug'orishda lotok ariqlardan foydalanishni yanada ko'paytirish kerak deb o'ylayman.

Uchinchi yechim; ekin turlariga e'tibor qaratish kerak. Ko'p suv talab qiladigan ekinlarni o'rniga kam suv talab qiladigan ekinlarga almashtirish. Masalan sholi, paxta eng ko'p suv talab qiladigan ekinlardir. Ularni o'rniga kam suv talab qiluvchi danakli va urug'li mevazor bog'lar, uzumzorlar bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yer osti suvlarini ko'tarilishi bilan markaziy Farg'onadagi Yozyovon va Qoraqalpoq cho'llari deyarli qolmayapti. Ustozimiz Isomiddin Abdug'aniyev domla markaziy Farg'ona cho'llarini saqlab qolish maqsadida qo'riqxonalar tashkil qilmoqchi edilar. Bu narsa deyarli amalga oshmay, tabiat yodgorligi bilan yakun topdi. Cho'l lanshafti deyarli qolmadi. Shu bilan birga cho'l o'simlik (shifobaxsh jiyda, marvartak tut navlari, dorivor o'simliklar) va hayvonlari (burgut, ilonlar, echkiemar, yumronqoziklar) ham yo'qoldi. Vodiya "Qizil kitob"ga kiruvchi o'simlik (44 tur) va hayvonlar soni tobora ko'paymoqda.



O'zbekistonda orol bo'yi muammosi, alyuminiy zavodi (Surxondaryoda) muammolari ko'ndalang bo'lib turgan bir paytda kelajakda vodiymizda yangi muammoni keltirib chiqarib qo'yasmizmi?

To'rtinchi yechim; aholining ekologik madaniyatini oshirishdir. Buning uchun maktablarda alohida ekologiya darslari kiritilishi taklifini bermoqchiman. Ekologiyani bitirgan mutaxassislarga ish berish fursati yetdi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganimizda, tabiat bu bir butun kompleksdir. Unda komponentlar bir-biribilan doimo aloqada va bir butundir. Birining o'zgarishi ikkinchisiga o'z tasirini ko'rsatadi. Shunday ekan, durdonamiz bo'lgan Farg'ona vodiysining tabiatini asrab – avaylaylik va farzandlarimizga durdonaligicha yetkazaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 7-sinf. Geografiya. P. G'ulomov, H. Vahobov, P. Baratov, M. Mamatqulov. 2017.
2. 8-sinf. Geografiya. P. Musayev, J. Musayev. 2019.
3. 7-sinf. Biologiya (Zoologiya). O. Mavlonov. 2017.

